**XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 12-noyabr VII-17-189-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

**Qashqadaryo viloyati “Issiqlik ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyatining issiqlik energiyasi narxlari (tariflari) to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga asosan hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 25-iyundagi 01-20-10/05-38/1458-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 26-iyundagi 02/02-8574-sonli, viloyat “Issiqlik ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 18-avgustdagi 111-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** Viloyat “Issiqlik ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori Q.Jurayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Viloyatda issiqlik energiyasi xizmatlari uchun Qashqadaryo viloyati “Issiqlik ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taklif etilayotgan (QQS siz) narxlar (tariflar) **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

**3.** Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 2-dekabrdagi VII-3-018-4-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

**4.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini ta’minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**5.** Ushbu qaror rasmiy veb-saytlarda joylashtirilsin.

**6.** Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi  XUSHMURODOVA ISMIGUL BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining
2025-yil 12-noyabrdagi
VII-17-189-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyat "Issiqlik ta’minoti" MCHJ tomonidan taklif etilgan issiqlik energiyasi xizmati uchun (QQS siz) narxlar (tariflar)**
**JADVALI**

| T/R | Korxona nomi | O‘lchov birligi | Amalda qo‘llanillayotgan tarif | | | | | Yangi tarif darajasi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Aholi uchun markaziy isitish ($1m^2$ uchun 1 oyga) | Aholi uchun issiq suv ta’minoti (1 kishi uchun 1 oyga) | Aholi uchun tarif (1Gkal uchun) | Aholi uchun issiq suv ta’minoti ($1m^3$ uchun) | Yagona ulgurji tarif (1 Gkal uchun) | Aholi uchun markaziy isitish ($1m^2$ uchun 1 oyga) | Aholi uchun issiq suv ta’minoti (1 kishi uchun 1 oyga) | Aholi uchun tarif (1Gkal uchun) | Aholi uchun issiq suv ta’minoti ($1m^3$ uchun) | Yagona ulgurji tarif (1Gkal uchun) |
| 1 | Qashqadaryo viloyat "Issiqlik ta’minoti" MCHJ | so‘m | 1385 | 17427 | 80011 | 4841 | 132400 | 1385 | 17427 | 93613 | 5809 | 154908 |